



# МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 5 2024

гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки



# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**5-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

# **5-сан 2024**

## **сентябрь**

**Шолкемлестириүшилдер:**

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нагмет АЙЫМБЕТОВ  
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ  
Сапардурды АБАЕВ  
Адхамжон АБДУРАШИТОВ  
Хайрулла АЛЯМИНОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ  
Интизар АБДИРИМОВА  
Тұлқин АЛЛАЁРОВ  
Мариғжон АХМЕДОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фарҳад БАБАШЕВ  
Ботир БОЙМЕТОВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Шахло БОТИРОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,  
Қазақстан)  
Алишер ЖУМАНОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Холбой ИБРАГИМОВ  
Шохида ИСТАМОВА  
Умида ИБРАГИМОВА  
Лола ИСРОИЛОВА  
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,  
Қазақстан)  
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,  
Қазақстан)  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Захия НАРИМБЕТОВА  
Хушбоқ НОРБҮТАЕВ  
Улфат МАҲКАМОВ

Уролбой МИРСАНОВ  
Сафо МАТЧОН  
Шукурилло МАРДОНОВ  
Камаладин МАТЯКУБОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Раъно ОРИПОВА  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Фурқат РАЖАБОВ  
Муқаддас РАХМАНОВА  
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)  
Дилшода САПАРБАЕВА  
Феруза САПАЕВА  
Зайниддин САНАҚУЛОВ  
Мухаббат САЛАЕВА  
Қаҳхор ТУРСУНОВ  
Амина ТЕМИРБЕКОВА  
Нурзода ТОШЕВА  
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Вохид КАРАЕВ  
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Тармиза ХУРВАЛИЕВА  
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ  
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ  
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА  
Гавхар ЭШЧАНОВА  
Қонысбай ЮСУПОВ



<b>Janaberegnova A.J.</b> Mustaqil ishlarni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlariga oid tadqiqotlar nazariysi .....	177
<b>Xudayqulova F.B.</b> Pedagogik faoliyatda kasbiy madaniyatning xususiyatlari .....	189
<b>Фозилов Б.З.</b> Кар ва заиф эшиквичи 5-7-сinf ўкувчиларининг фукаролик компетенциясини шакллантиришда лойиҳа методидан фойдаланиш йўллари .....	195
<b>Orinbetov N.T.</b> Akademik litsey o'quvchilarining fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning didaktik ta'minoti .....	199
<b>Nizamova M. N.</b> Axborotlashgan zamonaviy jamiyatda bo'lajak menejerlar kasbiy mobilligini rivojlantiruvchi ta'llimni tashkil etish .....	204
<b>Kadirova G.X.</b> Ta'lim jarayonida varativ o'quv topshirqlardan foydalanish imkoniyatlari .....	209
<b>To'raqulova M.Q., Fatullayeva S.I.</b> Xorijiy tajribalar asosida oliy muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etish orqali yaratuvchi magistrлarni tayyorlash metodikasi .....	214
<b>Yuldashev S.N.</b> Loyihaga asoslangan ta'lim jarayonni tashkil etish metodikasi .....	224
<b>Құнынинь Ли.</b> Создание методического инструментария для развития экологической компетентности у будущих переводчиков и использование современных инноваций при его реализации .....	228

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Ibragimova D.I.</b> Isajon Sultonning tarixiy hikoyalari tematikasi .....	233
------------------------------------------------------------------------------	-----

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Тажетдинова Г.А.</b> Жоқары билимленидириүде жасалма интеллекттен пайдаланыў зәрүргилигі ҳәм машқалалардың шешимлери .....	239
<b>Tleubaeva G.S.</b> Olyi ta'lim tizimiga sun'iy intellektni joriy etish .....	248
<b>Toxirov F.J.</b> Talabalarning mobil ilovalarni ishlab chiqishga oid kompetentligini rivojlantirishda simulyatsiya va virtual muhitlardan foydalanish imkoniyatlari .....	254
<b>Бўронова Г.Ё.</b> Виртуал робототехника тўғаракларини ташкил этишда замонавий ўкув платформаларидан фойдаланишнинг амалий имкониятлари .....	259
<b>Djumayev J.M.</b> Robototexnika darslarida talabalarni ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish masallari .....	267
<b>Axmedov A.B.</b> Professional ta'limda raqamli transformatsiyaning ahamiyati .....	275

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

<b>Oteniyazova P.E.</b> Qaraqalpaq xalq awizeki kórkem döretpelerinen biri bolǵan jumbaqlar tiykarında balalardıń til ósiriwin rawajlandırıw .....	282
<b>Ochilov F.I.</b> O'quvchilar tabiiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishning individual ta'lim amaliyoti .....	286
<b>Jabborova O.M.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 5 ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari mazmuni .....	291
<b>Tashpulatova D.M.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya asoslarini o'zlashtirishini tashhislash metodikasi .....	299
<b>Sayliyeva M. M.</b> Tabiiy fanlar turkumini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kristizim ko'nikmasini shakllantirish .....	304
<b>Artikova N. Sh.</b> Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish .....	314
<b>Egamova G.A., Zikirova D. Sh.</b> Boshlang'ich ta'limda darslarni steam, stem технологиялари asosida tashkillashtirishga innovatsion yondashuvlar .....	320
<b>Kenjayeva F.Sh.</b> Bo'lajak tarbiyachilarining pedagogik va psixologik qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim muammosi sifatida .....	325
<b>Sulaymanova M.P.</b> Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanining o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish metodikasi (xususiy matablar misolida) .....	332
<b>Narimbetova Z.A., Asqarova N.J.</b> Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni matematik savodxonligini oshirishda matematik diktantlardan foydalananish .....	337
<b>Мамбеталиев Қ. А.</b> Бошлангич синфда ўкувчининг ёзма нутқини ривожлантириш .....	341



## TABIIY FANLAR TURKUMINI O'QITISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KRISTIZIM KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

*Sayliyeva M. M.*

*ChDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** tabiiy fanlar, o'qitish jarayoni, boshlang'ich sinf, o'quvchilar va o'zlashtirish,kristizim ko'nikmasi,shakllantirish va o'rgatish.

**Ключевые слова:** естественные науки,учебный процесс, начальная школа,ученики и освоение,кристальный навык,формирование и обучение.

**Key words:** natural sciences, educational process,primary school, students and learning, crystal skill, formation and training.

**Резюме:** Ushbu maqolada tabiiy fanlar turkumini o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kristizim ko'nikmasini shakllantirish muammosi to'g'risida fikr yuritilgan va muallifning individual yondashuvi taqdim etilgan.

**Резюме:** В данной статье рассмотрена проблема формирования у младших школьников навыка кристализма в процессе преподавания серии естественных наук и представлен индивидуальный авторский подход.

**Summary:** This article examines the problem of the formation of the Christianization skill in younger schoolchildren in the process of teaching a series of natural sciences and presents an individual author's approach.

Kirish. “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ta’limga oid belgilangan vazifalari ijrosi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini zamonaviy talablar asosida shakllantirish ham muhim o'rinn tutadi[1]. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining 4 K xalqaro moduli bo'yicha kristizim ko'nikmasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limiy va tarbiyaviy ko'nikmalarini shakllantirish nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi bo'yicha pedagogik olimlar tomonidan tadqiqotlar majmui yaratilgan. Bu borada O.Adizov, R.Djo'rayev, H.Ibragimov, O.Musurmonova, R.Safarova kabilarning tadqiqotlari muhim o'rinn tutadi. Yosh olimlardan



O.Jabborova, A.Kuchkinov, Toshpo'latova kabilarning tadqiqotlarida boshlang'ich ta'limgan zamonaliviy muammolari tadqiq etilgan.

Xorijlik pedagoglardan A.Komenskiy, D.Ushenskiy, kabilarning tadqiqotlarida jahon mamlakatlari boshlang'ich ta'lim muammolari va uni o'qitish metodikalari ishlab chiqilgan.

Ayni paytda,xalqaro miqyosida e'tirof etilgan 4K modeli bo'yicha maxsus tadqiqotlar endi yaratilayotganligini eslatib o'tish joiz.[2].

**Asosiy qism.** Xalqaro miqyosida e'tirof etilgan 4 K modeli bo'yicha eng muhim ko'nikmalardan biri bu kristizimdir. Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kristizim ko'nikmasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish dolzARB bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.Mazkur masala bo'yicha bizning yondashuvlarimiz quyidagilardan iborat:

**Kristizim ko'nikmasining mazmuni.** "Kristizim" tushunchasi lotincha bo'lib tanqidiy yondashuv ma'nosini anglatadi. Kristizim tushunchasi tanqidiy yondashuv, tahliliy fikrlash va holis munosabat ma'nolarida qo'llaniladi. Aslida tanqidiylik muayyan hodisa yoki voqelikdagi muammolarini tez va to'g'ri tushunish malakasidir. Bu o'rinda haqiqatni bila turib uni inkor etish ma'nosidagi tanqidiylik tushunilmaydi. Shu sababli tanqidiylik ta'limga tarbiya jarayonida ko'zlangan maqsadga hamda samaradorlikka erishishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini o'zlashtirishiga tanqidiy munosabatda bo'lish ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan xalqaro ta'limga dasturlari va xorijiy mamlakatlarning ta'limga tajribalarida kristizim atamasi ijobjiy ma'noda keng qo'llaniladi. Bunda tanqidiy yondashuv, tanqidiy munosabat va ta'limga tarbiya asoslarini tanqidiy o'zlashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kristizim ko'nikmasining tarkib toptirilishi ularning bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining bunday ko'nikmasini tarkib toptirish ularning bilim va ko'nikmalarini hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirib borish imkonini beradi. Misol uchun, mamlakatimizda har bir o'quv yilida o'quvchilarining muayyan ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'lga qo'yilgan. 2023-2024 o'quv yilida umumiyligi o'rta ta'limga maktablari o'quvchilarining biz tadqiq etayotgan 4K modeli bo'yicha ta'limga sharoitidan foydalanish,jamoa bo'lib ishslash,ijodiy yondashuv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishga asosiy e'tibor qaratildi. 2024-2025 o'quv yilida mazkur ko'nikmalarning mantiqiy davomi bo'lgan o'quvchilarda 5 ijtimoiy-emotsional o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatga kirisha olish va ma'suliyatli qaror qabul qilish



ko‘nikmalarini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g’risida”gi Qarori bilan belgilab qo‘yildi. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini maqsadli shakllantirish muammolarini maxsus tadqiq etishni taqazo etadi.

Shu jihatdan bu o‘rinda 4 K xalqaro modeli bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy yondashuv ko‘nikasini shakllantirish mazmunini belgilab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ko‘nikma Buyuk Britaniyaning Kembrij kolleji pedagogi olimlari tomonidan XX asr 90-yillarda ishlab chiqilgan va dunyo miyosida e’tirof etilgan. Mazkur ko‘nikmani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirish mazmunini quyidagilar tashkil qiladi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqelikka tanqidiy munosabatini shakllantirish;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqelikni tahlil vositasida qabul qilishga o‘rgatish;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmasini tarkib toptirish.

Ushbu ko‘nikmalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarkib toptirilishi zaruriyat hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqelikka tanqidiy munosabatini shakllantirish taqazo etiladi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kundalik faoliyati davomida duch keladigan murakkab yoki oddiy voqealarga tabiiy munosabatda bo‘lishi kerak. Buning ma’nosи shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi murakkab voqelik oldida ruhiy tushkunlikka tushmasligi lozim. Masalan, tengdoshlari unga nisbatan noholis munosabatda bo‘lsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bu voqelikni salbiy qabul qiladi. Chunki u bunday munosabatning sabablarini bo‘lishini istaydi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinf o‘quvchisi har qanday voqelikni tabiiy qabul qilishni o‘rgansa, unda tanqidiy munosabat ko‘nikmasi tarkib topadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirishda ularni voqelikni tahlil qilib qabul qilishga o‘rgatish ham muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zi duch kelgan voqelikni to‘g’ri qabul qilishga o‘rganishi kerak. Masalan, sinfdoshlari unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lsa, u bu voqelikni to‘g’ri qabul qilishi lozim. Chunki tanqidiy munosabat o‘quvchi hatti-xarakatidagi kamchiliklarni to‘g’irlash imkonini beradi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining voqelikni tahlil qilish vositasida qabul qilish ko‘nikmasi tarkib topadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini tarkib toptirishdagi yana bir muhim tayanchlardan biri ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini



tarkib toptishdir. Unga ko‘ra,boshlang’ich sinf o‘quvchisi voqelikka tanqidiy munosabat va uni tahliliy qabul qilish vositasida voqelik asoslarni izlab ko‘radi, buning natijasida unda mustaqil fikrlash tarkib topadi. Masalan,boshlang’ich sinf o‘quvchisiga sinf rahbari tanqidiy munosabatda bo‘lsa, u buning sababi bilan qiziqadi. Natijada unda voqelikni tahlil qilish va uning asoslarini aniqlash fikrlash yuzaga keladi. Bularning barchasi boshlang’ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikasining tarkib topishiga asos bo‘ladi.

E’tibor berilsa, 4K modeli tarkibiga kiruvchi kristizim ko‘nikmasi mazmuni boshlang’ich sinf o‘quvchilarini bilim, ko‘nikma va faoliyat asoslarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, kristizim ko‘nikmasi tarkibini quyidagi uch masala tashkil qiladi:

- 1) tanqidiy yondashuv;
- 2) tahliliy fikrlash;
- 3) holis munosabat

Tanqidiy yondashuv – bu voqelikni va hodisalarни tabiiy qabul qilish jarayonidir. Chunki voqelik va hodisalar tabiiy kechadi. Agar shaxs ularga nisbatan tabiiy munosabatda bo‘lmasa, shaxs murakkab voqelik va hodisalar girdobida ruhiy tushkunlik,umidsizlik hamda o‘ziga ishonmaslik holatlariga tushadi. Shu sababli boshlang’ich sinf o‘quvchilarning voqelikka tanqidiy yondashuv ko‘nikmasi ularni voqelikni tabiiy qabul qilish vositasida tarkib toptiriladi. Bugungi kunda texnologik rivojlanish sharoitida boshlang’ich sinf o‘quvchilari tezkor va ko‘p voqelikka duch kelishmoqda shu sababli boshlang’ich sinf o‘quvchilarining ba’zilari bu jarayonda murakkablika duch keladi va ba’zilari voqelikni yengib o‘tadi. Murakkablika duch kelgan boshlang’ich sinf o‘quvchisining bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi susayadi. Aksincha, voqelikni yengib o‘tgan boshlang’ich sinf o‘quvchisida bilim va ko‘nikmalarni kutilgan darajada o‘rganish yuzaga keladi. Shu sababli boshlang’ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy yonashuvga o‘rgatish taqazo etiladi.

Kristizim ko‘nikmasining asoslaridan birini tahliliy firlash tashkil qiladi. Unga ko‘ra,boshlang’ich sinf o‘quvchisi yaxshi yoki yomon voqelikni qiyoslay olishi,ijobiy ma’lumotlarni ayta olishi va o‘zining fikriga ega bo‘lishi kerak. Bunday hol boshlang’ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasining tabiiy ravishda tarkib topishiga asos bo‘ladi.Shu sababli ta’lim va tarbiya jarayonida boshlang’ich sinf o‘quvchilarning tahliliy fikrlash ko‘nikmasi boqichma-bosqich rivojlantirilib boriladi.

Kristizim ko‘nikmasi tarkibining yana bir asosi bu – holis munosabatdir. Unga ko‘ra boshlang’ich sinf o‘quvchisi har bir voqelik va hodisaga nisbatan holis



munosabatda bo‘lishi lozim. Masalan, sinfda ro‘y beradigan ijobjiy yoki salbiy hodisalarga boshlang‘ich sinf o‘quvchisi holis munosabatda bo‘lishi kerak. Agar u voqelikni ijobjiy yoki salbiy jihatdan qabul qilsa, uning munosabatida bir yoqlanmalik kelib chiqadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xolis munosabat ko‘nikasini tarkib toptirish bilan ularni faoliyatga maqsadli tayyorlashga erishish mungkin.

Diqqat qilinsa, kristizim ko‘nikmasi mazmunini bir necha asoslar tashkil qiladi. Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarining mazkur kristizim ko‘nikmasini tarkib toptirish ishlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmalar o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida, to‘garaklar mashg‘ulotlarida va sinfdan tashqari ishlar vositasida shakllantirish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, boshlang‘ich sinflarda Matematika hamda Informatika va axborot texnologiyalari o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirish kutilgan samarani beradi.

**Kristizim ko‘nikmasini shakllantirishga doir yondashuvlar.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirishga doir bir nechta yondashuvlar tarkib topganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Chunki 4K modeli tarkibiga kiruvchi kristizim ko‘nikmasi nisbatan yangi bo‘lishiga qaramasadan o‘quvchilarda uni shakllantirishga doir yondashuvlar muntazam tarkib topib bormoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirishning maqbul yondashuvlarini belgilab olish va ularni idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masalada bu borada quyidagi yondashuvlar to‘g’risida tushunchaga ega bo‘lish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) xorijlik pedagoglarning yondashuvlari;
- 2) tajribali amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining individual yondashuvlari;
- 3) Chirchiq davlat pedagogika universitetida tajribadan o‘tgan klasterli yondashuv.

Bunday yodashuvlarga asoslanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirishda muhim mexanizmlarni beradi. Shu jihatdan Yevropa mamlakatlaridan Filandiya va Osiyo mamlakatlaridan Singapur davlatlarida kristizim ko‘nikmasini o‘quvchilarda o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Bunda quyidagi metodga asoslaniladi:

- a) o‘quv fanlari materiallariga tanqidiy munosabatda bo‘lish.
- b) o‘quv fanlari materiallarini tanqidiy o‘zlashtirish;
- v) o‘quv fanlari materiallarini o‘zlashtirish bilan fikriga ega bo‘lish.



Shu jihatdan bu mamlakatlarda har bir o‘quv fani mashg’ulotlari erkin vositalarga asoslaniladi. Misol uchun, Tabiiy fanlar turkumiga kiruvchi dars mashg’ulotlarining o‘quv materiallari amaliy xususiyatga ega bo‘ladi va shu amaliy mashg’ulotlar vositasida mavzularning qoidalari o‘zlashtiriladi. Mamlakatimizda 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab mazkur metodikaga asoslangan boshlang’ich sinf darsliklari yaratildi. Shu ma’noda bu o‘rinda 3-sinf Tabiiy fanlar darsligidan olingan quyidagi mavzu asosida o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirishga doir namunaga e’tiboringizni tortamiz.

Diqqat qilinsa, Tabiiy fanlar dars mashg’ulotlari vositasida boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini tabiiy ravishda shakllantirishga erishish mumkin. Buning uchun har bir dars mashg’ulotlari maxsus tayyorgarlik asosida va amaliy yo‘naltirilgan shakllarda o‘tkazilishi taqazo etiladi.

Mamlakatimizda boshlang’ich ta’lim jarayonida individual yondashuvlarga ega bo‘lgan tajribali boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini faoliyat yuritmoda. Mazkur toifa o‘qituvchilarining individual yondashuvlaridan foydalangan holda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirish ham muhim imkoniyatlarni beradi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) tajribali boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining o‘ziga xos individual yondashuvini aniqlash;

b) tajribali boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining o‘ziga xos individual yondashuvini o‘zlashtirish;

c) tajribali boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining o‘ziga xos individual yondashuvlari asosida o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantish.

E’tibor berilsa, tajribali amaliy faoliyatdagi boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining individual yonashuvlari asosida o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirish muhim amaliy samaradorlikni beradi.

Mamlakatizida 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab Chirchiq davlat pedagogika universitetida professor-o‘qituvchilarini tomonidan ishlab chiqilib, tajribadan o‘tkazilgan innovatsion pedagogik ta’lim klasteri ta’lim muassasalariga joriy etila boshlandi. Unga ko‘ra, oily pedagogik ta’lim muassasasi, umumiyligida o‘rtacha ta’lim maktabi va maslaxatchi mutasaxxislar hamkorligida boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini tezkor va keng ko‘lamli shaklda tarkib toptirish mumkin. Bunda oily ta’lim muassasalarini professor o‘qituvchilarini o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirishda bilim va ko‘nikmalar majmuini taqdim qilish, umumiyligida o‘rtacha ta’lim maktab o‘qituvchilarini ular asosida dars mashgu’lotlari jarayonida o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini amaliy shakllantish va maslaxtchi mutaxassislar esa o‘quvchilarining



kristizim ko‘nikmasining shakllanganlik darajasini aniqlash hamda baholash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari,yana bir shaklga ko‘ra,boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, boshlang‘ich ta’lim metodik kengashi vakillari va maktab biriktirilgan oliy pedagogik ta’lim muassasalari mutaxassislari hamkorlikda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini tarkib toptiradi. Bunda amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilar shakllantirish vazifasini, boshlang‘ich ta’lim metodik kengashi vakillari yo‘naltirish vazifanini va oily pedagogik “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi 2024-yil 20-fevral ta’lim mutaxassislari ilmiy maslahatchi vazifasini bajaradi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasi ilmiy,metodik va amaliy jihatdan kutilgan darajada tarkib topadi.

Diqqat qilinsa, tajribadan o‘tgan klasterli yondashuvga asoslanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kristizim ko‘nikmasini talab darajasida shakllantirish bo‘yicha keng ilmiy-metodik imkoniyatlarni beradi.

Zero, kristizim ko‘nikmasini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Tabiiy fanlar turkumini o‘qitish jarayonida shakllantirishga doir yondashuvlar keng imkoniyatlarni berishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

**Kristizim ko‘nikmasini shakllantirishning ahamiyati.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirishning ahamiyati amaliy jihatdan muhimdir. Bu bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagi imokoniylatlarga ega bo‘ladi:

- 1) murakkab voqelikdan cho‘chimaslik;
- 2) bilim va tarbiya jarayonida muammolarni mustaqil hal qilish;
- 3) mustaqil faoliyatga tayyorlash.

Kristizim ko‘nikmasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini murakkab voqelikdan cho‘chimaslik asoslari bilan qurollantiradi. Shu sababli bu o‘rindan “murakkab voqelik” tushunchasini aniqlashtirib olishi lozim. Unga ko‘ra,murakkab voqelik ta’lim va tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun qiyinchiliklar tug’diradigan va unda ikkilanishni paydo qiladigan holatlar majmuidir. Shu sababli murakkab voqelik jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘zini yo‘qotmasligi uchun mavjud holatlarga tanqidiy munosabatda bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bunday tanqidiy munosabat murakkab voqelikni tabiiy qabul qilish,qiyinchiliklardan cho‘chimaslik va o‘zini tutish ko‘nikmalariga asoslaniladi. Shu sababli tabiiy munosabat boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining murakkab voqeliklarga nisbatan tabiiy munosabatda bo‘lish asoslariga tayanadi. Bu o‘ziga xos tanqidiy yondashuv ko‘nikmasiga ega bo‘lishdir.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kristizim ko'nikmasini shakllantirishning yana bir ahamiyati ularda bilim va tarbiya jarayonida muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmasi bilan qurollantirish vositasi asosida belgilanadi. Unga ko'ra,boshlang'ich sinf o'quvchilari,bilim,tarbiya olish va faoliyat asoslarini o'zlashtirish jarayonida duch keladigan muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bunday muammolar o'zlashtirish jarayonida,matn va ma'lumotlarni tushunmaslik va o'z harakatlaridan qoniqmaslik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmasiga odatlantirilishi kerak. Misol uchun,bilimlarni o'zlashtirishda duch keladigan muammolarni o'qib-o'rganish bilan hal etish kerakligini ular bilishi kerak. Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida kristizim ko'nikmasini shakllantirishning muhim ahamiyatlaridan birini belgileydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kristizim ko'nikmasini shakllantirishning navbatdagi ahamiyati ularni mustaqil faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Unga ko'ra,boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim,tarbiya va hayotiy faoliyat davrida mustaqil faoliyatga amal qilishga o'rgatilishi kerak. Buning uchun ular mustaqil faoliyat davrida o'zlashtirgan bilimlari,ko'nikmalari va qarashlardan foydalanishni bilishi lozim. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil faoliyatga tayyorlik ko'nikmasini tarkib toptirish muhim amaliy masalardan biri hisoblanadi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kristizim ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati ularda mustaqil harakatchanlik,muammolarni mustaqil hal qilish va ularni mustaqil faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi.

Shu jihatdan bunday amaliy jihatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini muhim imkoniyatlar bilan qurollantiradi. Misol uchun,boshlang'ich sinf o'quvchilari tanqidiy yondashuv,mustqail fikrlash va mustaqil harakat vositasida mustaqil faoliyat ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bunday faoliyat ta'lim, tarbiya olish jarayonida va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'limning keying bosqichiga tayyorlanish bo'yicha amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur masalani idrok etish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

**Xulosa.** E'tibor berilsa, 4K xalqaro modeli bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining kristizim ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilar uchun va boshlang'ich ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni beradi.

Ayni patyda, oliv pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining 4K xalqaro modeli bo'yicha o'quvchilarda kristizim ko'nikmasini shakllantirish metodikasini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga asoslanish kutilgan samarani beradi:



- a) majburiy va tanlov mutaxassislik fanlarini 4 K xalqaro modeli asoslari bilan boyitish;
- b) talabalarni haftalik pedagogik amaliyat davrida boshlang'ich sinf o'quvchilar davrida kristizim ko'nikasini shakllantirishga o'rgatish;
- c) har bir talabaning o'quvchilarda kristizim ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha individual metodikasini tarkib toptirish.

Bo'lajakboshlang'ichsinfo'qituvchilarining 4K modelibo'yichako'nikmasini shakllantirish uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalarining majburiy va tanlov mutaxassislik fanlari ushbu masalar bilan tavsifi bilan boyitilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, oily pedagogik ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim bakalavriyat ta'lim yo'naliشining "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi", "Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar", "Boshlang'ich ta'limda pedagogik konfliktalogiya, kabi majburiy va tanlov o'quv fanlari 4K modeli bo'yicha ko'nikmalar tavsifi bilan bo'yitilishi kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan biz tomonimizdan "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" majburiy o'quv fani bo'yicha ishlab chiqilgan quyidagi dars ishlanmasiga e'tibor bering:

### **Mavzu: Xalqaro 4K modeli bo'yicha ko'nikmalar**

Reja:

1. Xalqaro 4K modeli to'g'risida axborot
2. Xalaqro 4K modeli ko'nikmalari mazmuni
3. Xalqaro 4 K modeli ko'nikmalarini o'zlashtirish metodikasi

Tayanch tushunchalar:

4K modeli, komunikatsiya va kollaboratsiya, kreativ va kristizim, o'zlashtirish va metodika, baholash va yondashuv

Darsning borishi:

Dastlab birinchi reja bo'yicha bilim beriladi

Shundan keyin ikkinchi reja asosida 4K modeli mazmuni tushuntiriladi. Unga ko'ra, komunikatsiya - ta'lim va sharoiti va muhitidan foydalanish ko'nikmasi, kollabotarsiya – jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi, kreativlik – ijodiy yondashuv ko'nikmasi, kristizim – tanqidiy fikrlash ko'nikmasi. Bu tushunchalar mazmuni talabalarga keng tushuntiriladi.

Suhbat, trening va o'zaro musobaqa metodikasi asosida talabalarning 4K modeli ko'nikmalarni shakllantirilishi tashkil qilinadi.

Amaliy mashg'ulot:

Amaliy mashg'ulotda talabalar to'rt guruhga bo'linib, 4 K modeli bo'yicha to'rt ko'nikma taqdimotini o'tkazadi. Taqdimot yakunida jamoalarning mazkur ko'nikmalarini o'zlashtirish ko'rastkichlari baholanadi.



Bunday dars shakllari vositasida oily pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini 4K xalqaro modeli bilan quollantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida pedagogik amaliyat davrida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining kristizim ko‘nikmasini shakllantirish va ularni boshlang’ich sinf o‘quvchilarida shu ko‘nikmani tarkib toptirishga yo‘naltirish muhim masaladan birdir. Buning uchun talabalar boshlang’ich sinf o‘quvchilariga biriktiriladi va ular o‘zlariga biriktirilgan o‘quvchilarda tanqidiy yondashuv tanqidiy munosabat mustaqil harakat va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar,o‘yinli terininglar va musobaqalar o‘tkazish bilan mazkur ko‘nikmalarni tarkib toptiradi. Natijada talabalarda boshlang’ich sinf o‘quvchilarda kristizim ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha metodika tarkib topadi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida har bir bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarning boshlang’ich sinf o‘quvchilarida kristizim ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha individual metodikasi tarkib toptish ham muhim amaliy mexanizimlaridan birdir. Unga ko‘ra, har bir talaba o‘z qiziqishi,bilimi va izlanishlari asosida bunday metodikaga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun Ustozshogird an’anasiga binoan talabalar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Diqqat qilinsa,bunday amaliy yondashuv muhim mexanizimlarini berishini eslatib o‘tish joiz.

Shunday qilib boshlang’ich sinf o‘quvchilarining 4 K xalaqo modeli bo‘yicha kristizim ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Bunda kristizim ko‘nikmasining mazmuni, uni shakllantirishga doir yondashuvlar va kristizim ko‘nikmasining bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida tutgan o‘rni masalalarini idrok etish muhim ahamiyatga egadir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. “O‘zbekiston-2030”strategiyasi.//www.ziyonet.uz.
2. Jabborova O.M Boshlang’ich ta’limda innovatsion texnologiyalar.-Toshkent, 2023.
3. Sayliyeva M.M Xalqaro 4 K modeli ko‘nikmalarini mazmuni. 65-67 bet, Boshlang’ich ta’limning zamonaliv tendensiyalari: Ta’lim va tarbiya jarayonida yangi avlod darsliklari 4K (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya modeli, muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri, 2024 yil 19 aprel.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық  
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

## «МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ»

№ 5

Нөхис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

*A. Тилегенов, С. Нуржанов*

Баспаға таярлаған:

*A. Тилегенов*

Компьютерде таярлаған:

*П. Реймбаев, З. Ниязымбетова*

**Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54**

**Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34**

**e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,**

***mugallim-pednaik@mail.uz***

***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***

***www.KRTEACH.UZ***

*Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.*

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 09.09.2024. Форматы 70x100<sup>1/8</sup>

«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы \_\_\_\_\_ Буйыртпа №